

“QULOQ” KOMPONENTLI MAQOLLARNING LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI
(O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI ASOSIDA)

Shahnoza Xo‘janiyazova Satimboyevna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, (PhD)

Abdullayeva Sarvinoz Erkinboyevna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti magistranti,
Gavhar ko‘chasi 1, Toshkent 100149
sarvinozabdullayeva@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18081525>

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek xalq maqollarida “quloq” komponentining lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot predmeti sifatida tana a‘zolari, xususan “quloq” so‘zi ishtirokidagi maqollar, tadqiqot obyekti sifatida esa ularning milliy-madaniy va axloqiy qadriyatlarini ifodalashdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada lingvomadaniyatshunoslik metodologiyasi asosida “quloq” obrazining semantik, obrazli va madaniy belgilari tizimi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: maqol, quloq, madaniyat, qadriyat, konsept, lingvomadaniyat, lingvomadaniy kod, o‘zbek xalq maqollari, milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, og‘zaki madaniyat, xalq tafakkuri, semantik tahlil.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу лингвокультурных особенностей компонента “ухо” в узбекских народных пословицах. В качестве предмета исследования рассматриваются пословицы с названиями частей тела, в частности со словом “ухо”, а объектом исследования является их роль в выражении национально-культурных и нравственных ценностей. Кроме того, в статье на основе методологии лингвокультурологии раскрывается система семантических, образных и культурных характеристик образа “уха”.

Ключевые слова: пословица, ухо, культура, ценность, концепт, лингвокультура, лингвокультурный код, узбекские народные пословицы, национальные ценности, нравственное воспитание, устная культура, народное мышление, семантический анализ.

Annotation. This article is dedicated to the analysis of the linguocultural features of the component “ear” in Uzbek folk proverbs. The subject of the research is proverbs with body part names, specifically with the word “ear,” and the object of the research is their role in expressing national-cultural and moral values. Additionally, the article, based on the methodology of linguistic and cultural studies, reveals the system of semantic, figurative, and cultural characteristics of the image of the “ear.”

Key words: proverb, ear, culture, value, concept, linguoculture, linguocultural code, uzbek folk proverbs, national values, moral education, oral culture, folk worldview, semantic analysis.

Kirish. Til va madaniyat munosabatini tahlil qilish, til birliklarining milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettirish, milliy qadriyatlar, an‘analarni ifodalash darajasini aniqlash madaniyatlar munosabatga kirishayotgan bugungi global taraqqiyotning dolzarb masalalaridan biridir. Til madaniyatning milliy komponentlari orasida birinchi o‘rinda turadigan aloqa vositasi, madaniyat majmuyi bo‘lib, “til va madaniyat – bu insonning va xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shakllari”[1. B. 70.] dir.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi boy va sarmazmun bo‘lib, unda kishilar hayoti, ijtimoiy munosabatlari, axloqiy qadriyatlarini yaqqol o‘z ifodasini topgan. Shu jumladan, tana

a'zolarini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi maqollar xalq tafakkurining ramziy obrazlaridan biridir. Ular orqali nafaqat lingvistik ma'lumot, balki madaniy, axloqiy va mental belgilar ham ochib beriladi. Xususan, "quloq" komponentli maqollar insonning eshitish, tinglash, tarbiya olish va axborotni qabul qilish bilan birga xalqning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari, ijtimoiy qadriyatlari va madaniy tafakkuri faoliyatlari bilan bog'liq bo'lib, muhim lingvomadaniy xususiyatlarni o'zida mujassam etadi.

Mazkur maqolada quloq konseptining o'zbek tili maqollarida qay holatda namoyon bo'lishi, o'zbek millatining milliy madaniyati munosabatlaridagi xarakterlari, xalqning madaniy va axloqiy qarashlarini ifodalashdagi lingvomadaniy xususiyati yoritildi.

Adabiyotlar tahlili. Dunyo tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslik XX asrning ikkinchi yarmi XXI asr boshlarida antropotsentrik paradigma doirasida tilni madaniyatni aks ettiruvchi va shakllantiruvchi hodisa sifatida talqin qilish natijasida vujudga kelgan.

Jahon tilshunosligida bir qator olimlar bu sohada o'zlarining ilmiy tadqiqotlarini olib borgan. Jumladan, V.fon Gumboldt - til va madaniyat birligini isbotlab tilni milliy tafakkur oynasi sifatida talqin qildi, lingvomadaniyatshunoslikning falsafiy poydevorini yaratdi. V.N.Teliya - zamonaviy lingvomadaniyatshunoslikning yetakchi namoyandasi, lingvomadaniyatshunoslik asoschisi bo'lib, ayniqsa frazeologiya va madaniyat bog'liqligini o'z tadqiqotlarida ilgari surdi.

V.V. Vorobyov til - madaniyat - shaxs uchligini ilmiy muomalaga kiritdi. V.A. Maslova lingvomadaniy birliklar va konseptlar nazariyasini ishlab chiqdi va "Лингвокультурология" darsligi orqali fan metodologiyasini tizimlashtirdi. N.D. Arutyunova til birliklarining madaniy-semantik qatlamini o'rgandi, diskurs va madaniyat munosabatini yoritdi.

O'zbek tilshunosligida N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, Sh.Usmanova, G.Nasrullayeva, Sh.Mahmaraimova, S.Karimov, F.Usmonov, D.Ashurova, G. Ismoilova, Z.Qodirova, Sh.Qalandarov, Z.Muqimova va boshqa olimlarning o'zbek tilining lingvomadaniy xususiyatlariga doir tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada "quloq" komponentli maqollar tahlil qilinib, ularning xalq tafakkurida bilim olish, donolik, ehtiyotkorlik, hushyorlik, axloqiy tarbiya va ma'naviy sezuvchanlik kabi tushunchalarni ifodalashdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. U nafaqat biologik organ emas, balki og'zaki madaniyat, tinglash va o'rganish an'analari, ijtimoiy munosabatlar va so'z madaniyatining ramzi ekanligi asoslangan.

Ma'lumki, lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni, til birliklarining madaniy xususiyatini o'rganadi. Tana a'zolari, xususan quloq obrazining maqollarda ishlatilishi, xalqning real hayoti va ijtimoiy tajribasining ramziy ifodasidir. "Quloq" elementi bu yerda biologik emas, balki semantik, obrazli va madaniy belgilar tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

QULOQ – "Odam hamda umurtqali hayvonlarning eshitish hamda muvozanat a'zosi va uning tashqi qismi", "odamning qulog'i", "otning qulog'i", "quloq pardasi", "quloq suprasi",

“quloq kasalliklari”, “quloqqa boldoq taqmoq”. “qulog‘ini (qulog‘idan) cho‘zmoq”. *Qiy-chuv, chag‘ir-chug‘ur quloqni kar qiladi* (Oybek, Tanlangan asarlar).[2. B. 269.]

Qiy-chuv, chag‘ir-chug‘ur quloqni kar qiladi gapida “quloq” so‘zi dastlabki ma’nosini, ya’ni eshitishorganini anglatadi.

Quloq lingvomadaniy kodi o‘zbek xalqi maqollarida faol qo‘llaniladi. Masalan, *Avaylab so‘zla so‘zingni, Devorning ham qulog‘i bor* maqolida sir saqlash zarurati, har qanday joyda odam kuzatuv ostida bo‘lishi, hushyor bo‘lmoqligi haqida ogohlantiradi.

Yaxshi gapga quloq sol, Yomon gapga uloq sol maqolida tarbiya va axloqiy munosabatlar, diqqatli va itoatli bo‘lishlikni ifodalasa, *Yaxshi so‘zni quloq tinglar, yomon so‘zdan yurak zada bo‘lar* maqolida so‘zning ta’siri bilan birga axloqiy qadriyatlar, ya’ni inson yaxshi va yomon so‘zlarni farqlay olishi kerakligi, ma’naviy sezuvchanlikning quloq orqali qabul qilinishi ta’kidlanadi.

“Quloq” obrazli maqollar xalq tafakkurining axborot, maslahat, eshitish orqali og‘zaki madaniyatga e’tiborini; tanbeh, eslatma, ogohlantirish kabi og‘zaki tarbiya usuli ustuvorligini, hushyorlik-ehtiyotkorlik, g‘iybatdan saqlanish zarurligini, sukut va ehtiyotlik madaniyati bilan ortiqcha gapdan tiyilish kabi axloqiy, ma’naviy qarashlarini uqtirishga yordam beradi.

Yaxshi gapning ham qulog‘i bor, Yomon gapning ham. Devorning sichqoni bor, Sichqonning qulog‘i bor. Ushbu maqollarda ehtiyot va hushyor bo‘lmoqlik, ortiqcha so‘zlashdan o‘zni tiyishlik kabi xalqimizning madaniy ongidagi axloqiy tushunchalari gavdalangan. Mazkur maqollarda har qanday yashirin gap ham bir kuni oshkor bo‘lishi, qachondir kimdir ehitishi, eng ishonchsiz va befarq ko‘ringan narsa (devor, sichqon) ham gapni ilg‘ashi, yetkazishi mumkinligi uqtirilgan.

So‘zning onasi – quloq, Suvning onasi – buloq [6.] maqolida quloq va buloq obrazlari orqali bilim olish, donolik va hayotiy tajriba tushunchalari madh etilgan. Jumladan, *So‘zning onasi – quloq*: bu yerda tinglash, eshitish qobiliyati muhimligi, yaxshi so‘z aytish uchun, avvalo, boshqalarning gapini diqqat bilan eshitish zarurligi, donolik, to‘g‘ri fikr, chiroyli nutq – barchasi eshitish orqali shakllanishi ta’kidlangan. Maqolning *Suvning onasi – buloq* qismidan esa har bir narsaning bir manbayi bor, ya’ni suv buloqdan boshlanadi degan ma’no anglashiladi. Ya’ni quloq buloqqa o‘xshatilib, so‘zning manbayi, yaratuvchisi – onasi quloqdir, deyilmoqchi.

Xalq tafakkurida quloq, bu – tinglash, o‘rganish, madaniyatning ajralmas qismi bo‘lib, ijtimoiy muloqotning asosi sifatida qaralsa, donishmandlik an’anasida “quloq solish”, “quloq tutish” – hurmat, e’tibor va bilim olishning ramzi hisoblanadi. “Suvning onasi – buloq” birikmasida esa tabiat bilan uyg‘unlik, tabiiy manbaga hurmat ruhi tasvirlanadi.

Eshitmagan quloq kar, anglamagan yurak tosh. Ushbu til birligida insonning ikki muhim qobiliyati idrok etish va anglash orqali ma’naviy va axloqiy ong darajasi baholanadi.

Shunchaki eshitish yetarli emas, eshitilgan narsani anglash, tushunish kerak. Bu jarayon ro'y bermasa "kar" va "tosh" kabi befarqlik, murosasizlik yoki ruhiy qotish holati yuzaga keladi.

Kar lingvomadaniy kodi metaforik tarzda haqiqatga loqayd, o'ziga qaram bo'lgan shaxs obrazini tasvirlasa, *yurak* leksemasi ko'proq ruhiy holat, mehr, tuyg'u ramzi sifatida talqin qilinadi. Yurakning "tosh"ga o'xshashi ruhiy befarqlikni bildiradi.

Och qornim – tinch qulog'im [3. B.40] maqoli xalqimiz donishmandligining chuqur hayotiy tajribasi asosida yaratilgan bo'lib, jismoniy ehtiyojlar qondirilmasa, ruhiy tinchlik, ijtimoiy xotirjamlik bo'lmaydi, degan g'oyani ifodalaydi. Bunda *quloq* lingvomadaniy kodi senekdoxa usuli orqali jon, tana, butun gavda ma'nosini anglatadi. Maqol zamiriga esa mehnatdan topilgan boylilik totliligi, birov bergani minnat ekanligi, birov minnati bilan qorin to'yishidan ko'ra ochlik afzal ekanligi singdirilgan.

Karnaychidan oshnang bo'lsa, Qulog'ingga paxta tiq. Ushbu maqolda hazil aralash tanqid va ogohlantiruvchi ma'no ifodalangan bo'lib, agar do'sting doim baland ovozli, shovqinli bo'lsa, jim yurmaydi, bezovta qiladi. Ya'ni gap yetkazuvchi – g'iybatchi odam bilan do'stlik qilmoqchi bo'lsang, sabrli bo'l; ko'p gapga, ko'p ovozga tayyor tur.

Ushbu maqolda *karnaychi* g'iybatchi, bebro' kishi ma'nosini anglatadi. "*Quloqqa paxta tiqish*" – eshitmaslikka urinish, ya'ni gaplaridan, "shovqini"dan saqlanish uchun chora ko'rish ma'nolari anglashiladi. *Karnaychidan oshnang bo'lsa, Qulog'ingga paxta tiq* maqoli ma'nosini *Bebro' bilan teng bo'lma* maqoli mazmuniga teng deyishimiz ham mumkin. Shuningdek, do'st tanlashda ehtiyot bo'lish, har qanday odam bilan oshna bo'lish oqibatlariga haqida ogohlantiradi.

Og'rimagan quloqqa – oltin sirg'a (sirg'a).[4. B.311.] Bu maqol hazil aralash kinoya bilan aytiladi. Anglashiladiki, kim hayotda azob tortmagan, og'riq ko'rmagan bo'lsa, unga chiroyli gap, o'git, maslahat, ya'ni "oltin sirg'a" arzimaydi. Zero, og'riq ko'rmagan quloq – nasihatni tushunmaydi. Bu yerda "Og'rimagan quloq" – hech qanday hayotiy sinovdan o'tmagan, qiyinchilik ko'rmagan odam obrazida gavdalansa, "oltin sirg'a" –qimmatli maslahat, dono so'z ma'nosida qo'llanilgan. Bundan ko'rinadiki, mazkur maqolda og'riq, qiyinchilik ko'rgan odamgina "oltin sirg'a"ga loyiqdigi, ya'ni nasihatni chin yurakdan qabul qilishi va qadrlay olishi singari qadriyatlar yoritiladi.

Quloqdan kirgan sovuq so'z

Ko'ngilga borib muz bo'lar [5. B.43] maqolida tilimizda so'zning ruhiyatga ta'siri, insoniy munosabatlardagi noziklik va so'z tanlash madaniyati, ko'ngilga hurmat va ko'ngilni ko'tarish sifatleri, hamda muloqotda ehtiyotkorlikni qadrlashi bilan bog'liq qadriyatlar ochib beriladi.

Mazali so'zga quloq charchamas maqolida "mazali so'z" metaforik ma'noda qo'llanib, yoqimli, shirin, chiroyli so'z degan ma'nolarni bildiradi. So'z faqat aloqa vositasi emas, balki ruhni oziqlantiruvchi, qalbgga malham sifatida qabul qilinadi. Bu yerda *quloq* lingvomadaniy

kodi axborotni eshituvchi, qabul qiluvchi kishini ifodalagan. Ya'ni yoqimli, shirin so'zdan odam charchamas ma'nosi anglashiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "quloq" obrazi o'zbek xalq maqollarida bir necha muhim semantik va madaniy qatlamlarni o'zida mujassam etadi. Birinchidan, u bilim olish va donolik manbaya sifatida qaraladi – tinglash qobiliyati so'z aytish va fikr yuritishning asosi ekanligi ta'kidlanadi. Ikkinchidan, quloq ehtiyotkorlik va hushyorlik ramzi bo'lib xizmat qiladi – sir saqlash va har qanday vaziyatda ehtiyotkor bo'lish zarurati uqtiriladi. Uchinchidan, bu obraz axloqiy tarbiya va ma'naviy sezuvchanlik belgisi sifatida namoyon bo'ladi – yaxshi va yomon so'zlarni farqlash, axloqiy tanlov va tarbiya masalalari ko'tariladi.

Maqollarda "quloq" atrofida shakllangan metaforik tizim xalqning dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasini aks ettiradi. Shunchaki eshitish emas, balki anglash va idrok etish muhimligi alohida ta'kidlanadi. So'zning ruhiyatga chuqur ta'siri va muloqot madaniyatidagi noziklik, do'st tanlash va ijtimoiy munosabatlardagi ehtiyotkorlik masalalari hazil aralash tanqid orqali ham ifodalanadi. Bundan tashqari, hayotiy tajriba va qiyinchilik ko'rgan odamgina nasihatni chin yurakdan qabul qilishi va qadrlay olishi singari qadriyatlar ham yoritiladi.

Xulosa. "Quloq" komponenti o'zbek xalq maqollarida ko'p qirrali lingvomadaniy kod bo'lib, u orqali milliy qadriyatlar tizimi – donolik, ehtiyotkorlik, axloqiy tarbiya, so'z madaniyati, ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy sezgirlik kabi tushunchalar o'ziga xos obrazli tilda ifodalanadi. Bu obraz o'zbek xalqining og'zaki madaniyatga, tinglash va o'rganishga, so'z va sukunat madaniyatiga berilgan ahamiyatini, shuningdek, hayotiy tajriba va donishmandlik an'alarini aks ettiradi. Shunday qilib, tana a'zolari nomlarining maqollarda qo'llanilishi milliy tafakkur, madaniy xotira va axloqiy me'yorlarning til orqali avlodlarga o'tishining yaqqol namunasi hisoblanadi. Maqollarni lingvomadaniy tahlil etish, ular ma'no mazmunini chuqurroq anglab yetish, ulardan foydalanish imkoniyatlarini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. E. Mamatov. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Noshir, 2019. – B.70.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jild. – Toshkent: G'.G'ulom, 2022. – B.269.
3. Bolalar uchun maqollar, topishmoqlar, she'rlar. – Toshkent: Yurist-media markazi, 2019. – B.40
4. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2018. – Б.311.
5. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – B.43.
6. <https://izoh.uz/word/buloq> .